

“XIRMONDALI” DOSTONINING O‘ZBEK XALQ
DOSTONCHILIGIDA O‘RNI VA O‘RGANILISHI

Yo‘ldosheva Zuhra

Mustaqil tadqiqotchi Urganch shahar

+998977906787

Annotatsiya

Ushbu maqolada dostonchilikning og‘zaki va yozma variantdagi nodir asarlaridan misollar keltirilgan bo‘lib Samarqand, Farg‘ona, Xorazm dostonchiligi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Xorazm dostonchiligining o‘ziga xosligi, o‘rganilishi borasida buyuk folklorshunoslarimizning ilmiy izlanishlaridan misollar keltirilgan. "Xirmondali" dostonining Xorazm xalq dostonchiligidagi o‘rniga alohida o‘rin ajratilgan va yoritilgan.

Аннотация

В данной статье представлены примеры редких произведений-эпосов в устном и письменном вариантах с акцентом на эпосы Самарканда, Ферганы, Хорезма. Приведены примеры научных исследований наших великих фольклористов, относительно уникальности изучения эпосов Хорезма. Место эпоса «Хирмондали» в хорезмском народном эпосе отведено особое место.

Annotation

In this article, examples of rare works of epics in oral and written versions are presented, focusing on the epics of Samarkand, Fergana, Khorezm. Examples of the scientific research of our great folklorists regarding the uniqueness and study of the epics of Khorezm are given. The place of "Khirmondali" epic in Khorezm folk epic is given a special place and highlighted.

Kalit so‘zlar: doston janri, og‘zaki adabiyot, yozma adabiyot, "Goro‘g‘li" turkum dostonlari, dostonchilik maktablari, Go‘ro‘g‘ili, Xiromon dali, epizodik obrazlar.

Ключевые слова: эпический жанр, устная литература, письменная литература, эпос «Горогули», школы эпического письма, Горогули, Хиromон дали, эпизодические персонажи.

Key words: epic genre, oral literature, written literature, "Goroguli" epics, schools of epic writing, Goroguli, Khiromon dali, episodic characters.

Dunyo xalqlarida o‘zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. Biz o‘zbeklarda bu janr “doston” deb ataladi. Dostonlarda xalq madaniyatining barcha jabhalarini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bu albatta turli matal, maqol, topishmoq, afsona va rivoyatlar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq ogʻzaki ijodida baxshilar tomonidan ogʻzaki tarzda kuylab kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar hisoblanadi. “Alpomish”, Goʻroʻgʻli turkumidagi “Gʻoʻroʻgʻlining tugʻilishi”, “Malikai ayyor”, “Ravshan”, “Kuntugʻmish”, “Rustamxon” kabilar ogʻzaki doston naʼmunalaridir. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navroʻz”, Navoiyning “Hayrat ul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlar esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi.

Ogʻzaki ijoddagi doston bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Prof.

M. Saidov ularni sheʼriy va nasriy parchalardan iborat matndan, musiqadan, doston aytuvchining hofizlik mahorati, sanʼatidan va soʻz cherta bilishidan iborat deb qayd etadi, Shu bilan birga, doston haqida toʻliq tasavvur hosil qilish uchun baxshilarning bevosita tinglovchilar davrasida qaynab (ilhomga kirib) doston ijro etishiga guvoh boʻlish muhimdir.

Dostonchilik asrlar davomida goh ayrim syujet tarkibiy qismlari tushib qolib goh baxshilarning ijroiyl uslubiga boʻysungan holda sayqallanib yanada goʻzallashib shu bugungi davrgacha yetib kelmoqda

“Oʻzbek dostonchiligida ijro uslubiga koʻra Samarqand, Xorazm, Fargʻona (Namangan) dostonchilik anʼanalari mavjud boʻlib, Samarqand ichki boʻgʻiz ovoza, Xorazm ochiq qoʻshiq aytish yoʻli bilan, Fargʻona ochiq ammo, musiqa asbobiga mos holda kuylanadi” [1].

Shulardan Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan oʻziga xos xususiyatga ega. Epik asarlarni yetkazishda Oʻzbekistonning deyarli barcha yerlarida yakka ijrochilik hukmron boʻlsa, Xorazmda, asosan, jamoaviy ijrochilik yetakchilik qiladi. Xorazm dostonchiligi oʻzining qadimiy ildizlari, betakror uslub hamda shevasi, yorqin va jozibali kuy-qoʻshiqlari bilan ajralib turadi. Unda voqealar bayoni, roʻy bergan hodisa tafsiloti faqat nasrda ifodalanib, sheʼriy parchalarda esa lirik qahramon his-tuygʻulari aks etadi. Doston aytuvchini qadim Xorazmda oshiq, baxshi, goʻyanda, ayollarni esa xalfa deb yuritishgan.

Xorazm dostonchiligi 2 ta asosiy “Shirvoniy” va “Eroniy” maktablardan tarkib topgan.

“Goʻroʻgʻli” turkumi dostonlari oʻzbeklar orasida bir-biridan jiddiy ravishda farq qiluvchi 2 versiyada tarqalgan. Bu versiyalardan biri Xorazm “Goʻroʻgʻli” dostonlari boʻlib ular turkman versiyalariga oʻxshash, ozarbayjon “Goʻroʻgʻli”siga ancha yaqin turadi. Xorazm dostonlarini maxsus oʻrgangan prof.S.Roʻzimboyev ustozning fikricha vohada tarqalgan “Goʻroʻgʻli” turkum dostonlarining umumiy soni 24 tadir. Shulardan 18 tasi yozib olingan.

Xorazm dostonlari syujet xarakteri, ijodiy uslubi va kuylanishi jihatidan alohidalikka ega, ularning hajmi nisbatan qisqa. “Bozirgon”, “Kampir”, “Avaz

uylantirgan”, “Avazning ozod etilishi”, “Qirq minglar”, “Xirmondali” va boshqa dostonlar.

Ayrim fikrlarga ko‘ra “Bozirgon”, “Xirmondali” dostonlari “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari ruhidan ancha uzoqlashgan doston sifatida qarashadi. Ular Qo‘rg‘on dostonchilik maktab vakillarining keying davrlardagi “yangiligi” yoki Rahmatullo shoir Yusuf o‘g‘li repertuarlariga nazar soladigan bo‘lsak “to‘la o‘zlashmagan” namunalar bo‘lishi mumkin. Xalq dostonchiligining barqaror jonli an‘analari so‘na boshlagan davrlarda baxshilar repertuarlarida shu xildagi na‘munalar paydo bo‘la boshlashi tabiiydir. Ular “yakka hodisa” sifatida qaramoq zarur. Chunki ular (Xorazm dostonlari) Xorazmdan boshqa yerlarga tarqalmagan. Ayrim baxshilar repertuariga Xorazm dostonlarining kirib qolishi keyingi davr hodisasi hisoblanadi. Shu jihatdan “Xirmondali” dostonining o‘ziga xosligiga keladigan bo‘lsak bu doston ommaviy tarqalgan doston sirasiga kiradi.

“Xorazmda “Xirmondali” dostoni turkiy xalqlar folklorshunosligida ancha kam o‘rganilgan. O‘zbek folklorida bu dostonning, asosan Xorazmda tarqalgan og‘zaki va yozma variantlari xususida dastlabki fikrlar V.M.Jirmunskiy va M.T.Zarifovlarning ishlarida ko‘zga tashlanadi” [2].

Keyinchalik O.Madayev, prof.S.Ro‘zimboyev va boshqalarning ishlarida mazkur dostonning variantlari poetik tuzulishi, obrazlari xususida ko‘plab yangi fikrlar bildirilgan. Dostonning turkman versiyasi haqida B.A.Qarriyev, S.A.Qarriyev, B.Mametyazov, N.Ashirov va boshqalar bir qator tadqiqotl ishlarini olib borganlar. Dostonning qoraqalpoq versiyasi haqida Qalli Ayimbetov. Qabul Maqsetov. Kengasbay Allanberganov va boshqa qator qoraqalpoq olimlari ilmiy ishlarni amalga oshirganlar [3].

“Xirmondali” dostonini turli nomlar bilan uchratish mumkin: “Xirmondali”, “Xiromon pari”, “Xiromondalli”, “Guli Xiromon” va shu kabi. Dostonning bunday nomlanishi dostonning bosh qahramoni bo‘lgan jasur qizning nomi bilan bog‘liqdir. Qizning ismi turli versiya va variantlarda turlicha ma‘noda talqin qilinadi. Jumladan u turkman versiyasida “xirmon” so‘zi bilan aloqador bo‘lib kuch-quvvatning xirmoni bo‘lgan qiz ma‘nosida beriladi. Xorazm versiyasining Bola baxshi variantida ta‘kidlanishicha, Xirmon dali onasining qornida bo‘lgan paytida, uning otasiga tushida xurmo mevasini berib, qizning ismini Xurmo parizod deb qo‘yishni vasiyat qiladilar.

Aslida qizning ismi “Xiromon” so‘zidan olingan bo‘lib, tovush qisqarishi natijasida “xirmon” shakliga kirgan, “Dali” so‘zi uning asov, sho‘x, shaddod, qaysarligiga nisbatan berilgan laqabdir. Qiz ismining birinchi qismi turli versiya va variantlarda turlicha berilsa ham, “dali” so‘zi barcha versiya va variantlarda bir xil ma‘noga ega.

“Xirmon dali” dostoni baxshilardan Qurbonnazar Abdullayev – Bola baxshi, Qodir sozchi Karimov, Tursunboy Jumaniyozov, Abdulla Bobojonov, Numon Murodov va boshqa bir qancha xalfalarning repertuarlaridan o‘rin olgan. Numon baxshi bobosi Amin baxshi va otasi Murod baxshidan o‘rgangan dostonchilik mahoratini. Bola baxshi variant ancha qisqa bo‘lib, unda anchagina she‘riy parchalar tushib qolgan. Tursunboy Jumaniyov variant esa bir daraja to‘liq va mukammal bo‘lib, unda nasrning salmog‘i katta hisoblanadi. Ushbu doston qipchoqlik Xo‘jayoz baxshidan ham yozib olingan. Bu variant Tursunboy Jumaniyozov variantiga juda o‘xshashdir. Bu variantlar orasida eng mukammali Ellikqal‘alik baxshi Abdulla Bobojonovnikidir. Dostonning xalfalar orasida tarqalgan variant ham mavjud. Bu nusxa Xonqa tumanidagi Turkiston elatida yashovchi xalifa Zevarxon Sobirovada saqlanadi. Uning aytishicha, bu nusxa asrimiz boshlarida bitilgan qo‘lyozma asosida qayta ko‘chirilgan. Dostonning qo‘lyozma nusxasi eng to‘la va mukammal bo‘lgan Abdulla baxshi variantida 524 misra, Bola baxshi variantida 468 misra she‘riy misra mavjud bo‘lsa, yozma nusxadan 700 she‘riy misra o‘rin olgan. O‘z navbatida turkman versiyasida 460, qoraqalpoq versiyasida 397 she‘riy misra shlatilgan [4].

Narpay dostonchilik maktabi repertuarlarida “Kuntug‘mish”, “Alpomish”, “Gulixiromon” dostonlari bilan birgalikda “Xirmondali” dostonini uchratish mumkin va yozib olingan.

Dostonning Bola baxshi variantiga nazar soladigan bo‘lsak epik qahramonning tug‘ilish motivi portogenez (mo‘jizaviy tug‘ilish) hodisasi bilan bog‘liq holda beriladi. O‘sha doston muqaddimasida hikoya qilinishicha, Rum shahrida Arslonboy ismli kishi befarzand bo‘lib, tushida unga xurmo mevasi beriladi va jufti haloling bilan bo‘lib yegin, degan taklif bo‘ladi. Arslonboy mevani ayoli bilan bo‘lib yeydi. Sal o‘tmay ular qiz farzand ko‘rishadi. O‘sha qiz xurmo mevasi vositasida tug‘ilganligi sababli unga Xurmo dali ismi qo‘yiladi:

O‘n to‘rt gunlik oy kabi Nargiz go‘zli ayyor kabi, Olg‘ir lochin, xunxor kabi, Gazma har yona, har yona.

Xirmondali qizga 40 yigitning kuch-quvvati, 40 yigitning mulloligi, hazati Sulaymonning toji-taxti, Yusuf-Zulayhoning xushsuratiligi beriladi. Qiz bo‘yi yetganini sezib, endi bir yigitning etagini tutishim kerak deb, yurtina jar soldiradi. Kimki meni polvonlikda kurash tutib yiqitsa, shoirlik-u so‘zamonlikda aytishib yengsa shunga boraman deb yurtiga jar qildiradi. Yurtning 300 asl polvonlari-yu

300 shoirlari ham uni yengga olmaydi va barini kallasini oldiradi. U o‘zidan yengilgan yigitlarni o‘limga buyuradi. Bu esa “Semurug‘” ertagidagi rahmsiz parizod obrazini esga solsa-da, Xirmondali bir so‘zligi, sadoqatliligi bilan undan kelsin farq qiladi. Xirmondalining oshiqlikka davogarlarnin qatl qilishi tufayli “dali-g‘uli” bo‘lib qolgan uchun xalq unga “dali” laqabini beradi. Dostonning keying qismiga Go‘ro‘g‘li obrazining kirib kelishiga zamin yaratdi.

Asarda Go‘ro‘g‘li obraziga ham ancha o‘rin berilgan. Ayniqsa o‘zbekcha versiyasida u ko‘proq faoliyat ko‘rsatadi. Turkman, qoraqalpoq versiyalarida ham botir, pahlavon, xalq xalaskori sifatida tasvirlanadi. Biroq uning obrazining berilishida har bir xalqda o‘ziga xoslik ham mavjud. Bola baxshi variantida yag‘ini yerga tegmagan pahlavon Go‘ro‘g‘li ham Xirmondalini yengga olmaydi. Garchi Xirmondaliga u yoqsa ham shartni bajara olmagach, unga tegishga rozi bo‘lmaydi. O‘zbekcha versiyada u juda ko‘p epizodlarda ishtirok etadi:

Suv bo‘yinda durgan go‘zal, Sevar yor, suv ber, ichali.

Tarxinali qo‘llaringdan, Erkaxon, suv ber, ichali

Bu misralar orqali Go‘ro‘g‘li Xirmondali bilan uchrashgan vaqtida, avvalo mehmonga uzoq yo‘l yurib kelgani uchun suv berish joiz deya o‘zidagi biroz qo‘rslik va chapnilik tomonlarini ochib bermoqda.

Asarda faol ishtirok etgan yana bir obraz bu Oshiq Oydindir. O‘zbekcha versiyasida u Xirmondalini aytishuvda yenggan so‘zamon baxshi sifatida namoyon bo‘ladi va shartga binoan Xirmondali garchi u qari keksa bo‘lsa ham gapida turib tegishga rozi bo‘ladi ammo Oshiq Oydin uni o‘z shogirdiga to‘y qilib beradi. Turkman versiyasida u oshiq-mashuqlarga yordam beruvchi pir, soz va so‘z ustasi bo‘lgan epchil donishmand sifatida, qoraqalpoq variantlarida ham u o‘zbekcha variant kabi beriladi va xatto kulguli, so‘filar ustidan kulish tasvirlanish o‘rinlari ham berilgan.

Doston boshida kampir obrazi Xirmondali bilan Go‘ro‘g‘lining uchrashuvida vositachilik ro‘lini o‘ynaydi va boshqa ko‘rinmaydi. Bu ertaklarda ilgaridan tasvirlanib kelingan shum kampirning an‘naviy obrazidir.

Dostonning og‘zaki va kitobiy variantlarida ham va turli baxshilar tomonidan yozib olingan versiyalarida ham badiiy xususiyatlariga kelganda shuni aytish mumkinki, dostondagi nasriy matnlarda ishlatilgan sajlal, maqollar, topishmoqlar, tasviriy vositalar va til bo‘yoqdorligi o‘zgacha bir go‘zallik kasb etgan.

“Xirmondali” dostonida yana Karamjon, Qambar va Merom epizodik obrazlari ham xarakterli bo‘lib faqat oddiy oshiqlar tarzida ko‘rinib ketadilar.

O‘zbekcha og‘zaki variantlar bilan qo‘lyozma nusxasi qiyoslanganda bu narsa ayon bo‘ladiki, ularning ildizi qo‘lyozma nusxa bilan aloqadordir.

“Xirmondali” dostoni Xorazm vohasida faqat o‘zbeklar orasigina emas, balki boshqa xalqlar orasida ham keng ommalashgan. Mazkur doston yozma va og‘zaki variantlarda Xorazm mintaqasidagi o‘zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida qadimdan kuylanib kelingan. Doston syujeti uch xalq o‘rtasida genezis jihatdan yagona mazmun asosida taralgan bo‘lsa-da, har bir xalq unga o‘z milliy ruhini, xususiyatlarini, o‘z dunyoqashini singdirgan, o‘z musiqasiga, o‘z turmush tarziga moslashtirgan. Ayrim epizodlarni qo‘shgan va ayrim epizodlar, obrazlar tushib qoldirilgan.

Dostonning o‘ziga xosligining yana bir ko‘rinishi qiz bolaning shunday kuch-quvvatga ega bo‘lib yurt botirlariga kurash va so‘z ustaligida bas kela olishi boshqa dostonlardan tubdab farq qiladi. O‘zbek xalq dostoni bo‘lgan “Alpomish” dostonida ham Oybarchinning botirligi va jasurligiga tarif-u tavsif beriladi ammo syujetlarda urg‘u berilmagan. “Xirmondali” dostonida esa xatto kuragi yerga tegmagan Go‘ro‘g‘lini ham yenggishi kitobxonni va tinglovchini o‘zoga bog‘lab qo‘yadi. Tasviriy ifodaliklarda ham so‘z aytishuvlarida ham obrazlar ifodasida ham sheva xos unsurlar yaqqol sezilib korinib turadi. Bu bilan asar saviyasi also tushmaydi balki uning salmog‘ini oshiradi [5].

Bir versiyada qo‘llangan tasviriy vositalar, obraz portreti, maqollar qo‘llangan o‘rni, unga yuklangan badiiy funksiyala va boshqa jihatlariga qarab ma‘lum bir epizodda keltirilgan biror maqol boshqa variantlar shu obrazda keltirilmaydi. Bu esa shu xalq baxshisining o‘z ijodiy yondashgani va o‘z xalq urf- odatlaridan kelib chiqqan holda xalq og‘zaki ijod namunalarini turli syujetlarda qo‘llanganini bilishimiz mumkin. Dostondagi bu o‘zgachaliklar mazkur xalqlar orasida ancha qadimdan folklor aloqalari mavjudligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Madaev T.Sobitova Xalq og‘zaki poetik ijodi. Sharq.Toshkent .2001
2. Jirmunskiy.V.MZarifov.X.T.Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos.- M.:GIXL, 1947.-S.294-300.
3. Madayev.O Xorazm dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlar. AKD. Toshkent, 1972.- B. 104-107; Ro‘zimboyev Ro‘zimboy.S. Xorazm dostonlari. -T.:” Fan”, 1985: B. 96. Ro‘zimboyev.X.S. “Go‘ro‘g‘li” eposining poetikasi.Urganch, “Universitet”, 2005: B. 60. Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonchiligi epic an‘analari. Urganch “Universitet”, 2008. B. 58
4. Oshiqnoma 4-kitob.Urganch-2009.7-bet
5. S.Sariyev. Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining qo‘lyozma nusxalari. T.”Muharrir”, 2013